



## MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK ROMANLARIDAGI YANGILANISHLAR

Islomjon Yaqubov,  
filologiya fanlari doktori, professor

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15206727>

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek romanchiligida ro‘y berayotgan yangilanish va o‘zgarishlar tadqiq etilgan. Unda romanlarning poetik ifoda usullari, qahramon hissiy-intellektual dunyosida sodir bo‘lgan evrilishlar, badiiy tasvir vositalari tahlil etilgan.

*Tayanch so‘zlar:* janr, syujet, kompozitsiya, milliy xarakter, poetik mahorat, adabiy an‘ana, o‘ziga xoslik, adabiy ta‘sir, adekvat tarjima.

Globalashuv davri shiddati ta‘sirida o‘z milliy qiyofasidan ayrilib qolmaslikka intilayotgan kishilar ruhiy-intellektual olami, tuyg‘ular dunyosini ko‘rsatishga ehtiyoj ortdi. Nuqul kitobxonga o‘rnak bo‘lish va unga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish missiyasini tashuvchi, ammo o‘z shaxsiy hayoti, insoniy tuyg‘u-kechinmalaridan mahrum trafaret adabiy qahramonlar inkor etildi. Bu hol badiiy nasrga kundalik turmushning adoqsiz ikir-chikirlariga o‘ralashib yashayotgan – el qatori oddiy odamlar obrazini olib kirdi. Polvon, usta, duradgor, cho‘pon, dehqon, qorovul, farrosh, hatto qishloqdan shaharga kelib biror ijtimoiy mavqe egallay olmagan, ammo millat ruhini tashuvchi o‘zini anglab, odamlar orasidagi o‘rnini topib olishga intilayotgan, Q.Yo‘ldoshev ta‘biri bilan aytganda, “qahramon bo‘lmagan qahramonlar” (1) tasviriga e‘tibor ortdi.

Aslida, *chinakam roman kundalik turmush ikir-chikirlari bilan qanoat tuyishi mumkin emas. Bunda u o‘zining ijtimoiy zalvori, ya‘ni millat fikriy-hissiy qamrovini belgilash missiyasidan mahrum bo‘ladi.* Shunday ekan, Muhammad Salomning “Katta xonadon” (4) romani ham millat kishilari turfa qiyofalari, betakror fe‘l-atvorini haqqoniy tasvirlagani, xarakterlar yorqinligi, o‘zbekona turmush tarzi ichdan nurlantirilgani, binobarin hayotiy ekani bilan muayyan estetik qimmat kasb etadi. Bizningcha, bir xonadon muhitining betakror tasvirlari shu oila inson va jamiyatni anglash modeli ekanini ko‘rsatadi. Zotan, adibni tashvishga solayotgan bosh omil milliy o‘zlikni asrab qolish muammosidir. Umuman, *dunyo adabiyotida namoyon bo‘layotgan janriy sinkretizm hodisasi mustaqillik davri o‘zbek romanlari qiyofasini belgilovchi muhim faktordir.*

S.Meliev ta‘kidlaganidek, biz dunyo uchun faqat o‘zligimiz va o‘zbekligimiz bilan qadrlimiz, qiziqarlimiz. Zotan, adabiyot hamisha go‘zallik, ezgulik va nurafshon hislarni tarannum etish, ilohiy ruh ifodachisi bo‘lishni o‘zining ezgu missiyasi deb bilgan. Biz adabiy-ma‘naviy zahirasi yuksak, ma‘naviy tahdid va



iste'dodsizlikka yon bosmagan ulug' xalqmiz. Milliy adabiyotimiz nafaqat mazmun zalvori, balki shakliy-uslubiy go'zalligi, ezgulik hamda nafosat ifodasiga ehtiyojmand kitobxonlari bilan barcha davrlar talotumlaridan omon chiqib, insoniyat estetik xazinasini boyita olgan. Shunday ekan, o'zbek romanchiligidagi bugungi izlanishlar o'z ijobiy samaralarini berishi aniq.

Romanchilikdagi izlanishlar muammosi adabiy tanqidchilikda muayyan bahs-munozaralarga sabab bo'ldi (5). Bizningcha, san'at asari sifatida mustaqil borliq bo'lgan har bir romanni muallif badiiy falsafasi, odam va olamga munosabati, xayolot dunyosining qamrovi, hayotiy vaziyat-holatlarni baholash tarzi, roman kompozitsiyasi, xronotopi, poetik ifoda usullari, qahramon hissiy-intellektual dunyosida sodir bo'lgan evrilishlar e'tiqodiy asosi, badiiy tasvir vositalari nuqtai nazaridan o'rganish lozim. "Noan'anaviy" sanaluvchi romanlardagi eng muhim jihat – adibning qahramon tushgan ziddiyatli va tartibsiz vaziyat-holatga hayotiy yechim topishi, uning umidini so'ndirmasligidir:

1) Yozuvchi u yoxud bu xarakter onghostida kechgan sub'ektiv taassurotlarga xos impulslardan yana ob'ektiv olam muammolari, ya'ni Sharqona e'tiqodiy yechim, Qur'oniy haqiqatlarga qaytsagina, roman mohiyatan milliy-estetik hodisa va uning muallifi o'zbek romannavisi sanalishga haqli.

2) Janr doirasida ijodiy o'zlashtirilayotgan aksariyat yangicha belgi-sifatlar uning milliy ruhiga emas, balki poetik ifoda yo'siniga daxldor.

3) Roman yozilayotgan paytda dunyoqarashi va estetik kayfiyati islomiy e'tiqod o'zanida bo'lmagan adib absurd vaziyatga ishonchli mantiq topolmaydi. U mustahkam e'tiqodiy zaminda turmagani uchun chiziqsiz vaziyatdan chizikli holatga o'tolmaydi. Chigal kechinmalar og'ushidagi qahramon va fikrlovchi kitobxon o'rtasida e'tiqodiy robita yuzaga kelmas ekan, qahramon ong oqimidagi xaos kosmosga aylanib xaokosmos jarayoni sodir bo'lmaydi. Demak, "noan'anaviy" ifoda yo'sinida bitilgan bunday roman milliy bo'lolmaydi.

Mavjudlikning mohiyati haqidagi mushohadalar g'ayriixtiyoriy va irratsional tabiati romanga sirli mo'jizaviylik, ishonish mushkul bo'lgan g'aroyibotlarni ham olib kiradi. Chunki, roman xronotopida o'tmish, bugun va kelajak qarishiq holda keladi. Badiiy voqelik adib tafakkurida shakllanib, rivoj topuvchi shartli hayoliy zamonda sodir bo'ladi. *"Gumanitarnaya nauka, v kotoroy ispolzuyutsya metody issledovaniya yestestvoznaniya yest samooe urodlivoe yavlenie v kulture chelovechestva"* (2. 8). Mazkur qarashga ko'ra hayot va o'lim mohiyati ancha teranlashadi. *"Ty doljen stat samoubiysey urovnya "Ya – telo" i roditsya na urovne*

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



“Ya – mʻysl”. Ты должен stat samoubiysey urovnya “Ya – mʻysl” i roditsya na urovne “Ya – razum”. Ты должен stat samoubiysey urovnya “Ya – razum” i roditsya na urovne “Ya – dux” (2.348).

Demak, *jism istaklarini oʻldirish – bu fikr odami sifatida qayta tugʻilish. Fikrni oʻldirish – hissiy idrok kishisi sifatida tavallud topish. Hissiy idrokni oʻldirish ruh odami sifatida yangi hayot sari yuksalishdir.* Koʻrinadiki, har bitta “oʻlim” insonning ruhiy yuksalishi (maʼnaviy qayta tugʻilishi) yoʻlida bosib oʻtilishi shart boʻlgan muhim bir bosqichdan iborat. Bunday qarash toʻlasicha F.Nisshega tegishli boʻlmay, muayyan darajada, U.Kerimov tasavvurlari mahsuli boʻlsa-da, u ayni muammoning tasavvuf taʼlimotidagi talqinlariga ham mos keladi. Zamonaviy falsafaning mohiyati tubdan oʻzgarib, ruh haqiqatini anglash sari yuz tutdi.

Oʻzbek adiblari maʼnisiz hayot va uning fojiali xotimasi haqida yozishayotgani yoʻq. Jumladan, L.Boʻrixon qalamiga mansub “Jaziramadagi odamlar” romanidagi eng yorqin obraz, roman mehvarini ushlab turgan qahramon Lolaxondir. Adib uni behad kuyinchaklik va hikoyachi personaj Samad boʻgʻizga tiqilgan sogʻinch tuygʻulari bilan shunday chizadi: “...*parichehra, qaldirgʻoch qanotidek qoshlari noz bilan chimirilgan, yuz-koʻzlari toʻla tabassum*” – *nastarin iforlariga choʻmilgan goʻzal ayol edi*”. Biroq, uning chimirilgan qiyiq qoshlari, tabassum toʻla qahrabodek koʻzlari, chuqur kulgichli yonoqlari tuyqus oʻzgarib qoladi. Yanga: “*yuz-koʻzlariga bir mung, bir maʼyuslik qalqdi, araz-gina bilan lab qimtib bosh chayqadi, oppoq, nozik qoʻllarini havoda silkitdi, uzun yenglari bilagiga shimarilib qoldi*” (3. 320). Ezgin-ezgin, oʻksik-oʻrtaguvchi xotiralar, maʼyus-mahzun xayollarda tiklangan bu malak taqdiri kitobxon xayolot olami va kechinmalarini muvozanatdan chiqaradi. Asar yakunidagi oq-oppoq, shaffof tong manzaralari esa, oʻquvchi qalbiga umid va hayotbaxsh tuygʻular ulashadi.

L.Boʻrixon kelinchak bergan qurbonlik jismoniy oʻlimdan ming chandon miqyosli ekanini koʻrsatadi. Zotan, hayot talotumlari uning sevimli hamdamini zoʻravonlarcha tortib olgani yetmaganidek, koʻnikilgan udumlar zalvori ostida yashashga mahkumlik tabiiy insoniy istaklarini ham boʻgʻib qoʻydi. Lolaxon hatto oʻz tuygʻulari bilan yolgʻiz qolishga ham haqli emas. Demak, alohida shaxsgagina tegishli boʻlgan sezimlarga daxl qilinishi – erkning tushovlanish darajasini yanada chuqurlashtiradi.

Romanda oʻzgalarning hukmi hamisha haq boʻlavermasligi, oʻz yaqin hamdami va ichkin tuygʻularidan ajralish faxr emas, balki ulkan fojia ekani ochiladi. Lolaxon – oʻz istaklarini soʻnggi nuqttagacha jilovlashga mahkum jonli obraz, sabr-bardoshli,

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



matonatli o‘zbek ayoli. Unga soxta ehtirom emas, balki chinakam ayollik baxti zarur. Qahramon qalbini O‘roqboy o‘limidan ko‘ra, o‘zining tabiiy hayot oqimidan chetga chiqarib qo‘yilishi ko‘proq larzaga soladi. Biroq bu hol ko‘pchilik tomonidan anglanmaydi. Binobarin, beva mahzun kayfiyati – inson fojiasidan iftixor tuygan hissiz olomon o‘limga mahkum. Ko‘rinadiki, mustaqillik bergan plyuralistik tafakkur imkonlari sabab adib poetik tafakkuridan badiiy matnga ko‘chgan ma‘nisizlikning teran hayotiy omillari mavjud.

Darhaqiqat, *L.Bo‘rixon nazarda tutgan asl ma‘nisizlik – anglanmagan o‘zlik, loqaydlik va itoatkorlik. Roman falsafiy-estetik konsepsiyasi va ifoda yo‘sinidagi muhim yangilik: bir hovuch manfaatparast kimsalar tomonidan boshqarilayotgan katta dunyodan bexabar, kichik makondagi o‘zgartirilgan hayot – tirikchilik tashvishlari og‘ushida yashayverish mumkin emasligi haqidagi to‘xtam, uning ustidan chiqarilgan haqli poetik hukmda namoyon bo‘ldi. Adib azaliy hayot tarziga daxl qilingan tog‘lik xalq (keyinchalik posyolka ahli) va alohida ayol modeli misolida butun imperiya illatlari ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-axloqiy negizlari – olomonlik geneologiyasini fosh qilishni uddalay oldi. Bu illatlar roman kinoyaviy modusini tashkil etdi. Shu ma‘noda, romanda o‘nglanishga bo‘lgan umid va hayot nafasi ufurib turadi. Demak, romanda Lolaxon o‘limi sodir bo‘lmaydi. Agar bu o‘lim yuz berganida ham, kitobxon undan o‘z ko‘ngliga taskin topishi mumkin emas. Xarakter mantig‘idan kelib chiqilsa, qahramonda abadiy hayot sog‘inchi bilan bog‘liq simptomlar kuzatilmaydi. Lolaxonning hayot ekaniga bo‘lgan umidvorlikkina kitobxon diliga sokinlik ulashadi. Chunki, bu yorug‘ olamda yashash va o‘zlikni namoyon etishning inson hayotidan murakkabroq shakli yo‘q. Ijtimoiy hayotdagi manfaatparastlik va aqidalardagi g‘ayriinsoniylik alohida insonning takrorlanmas olami uchun qulay shaklga kelmas hamda odam bolasi qadr topmas ekan, bunday jamiyatni barqaror deb bo‘lmaydi. Tabiiy, ijtimoiy va insoniy garmoniyani saqlash aql-idrok kuchiga bog‘liq. Olam ham odamlar turmushi insoniylashuviga mas‘ullik tuyg‘usining anglanish darajasiga ko‘ra gullab yashnaydi. Aks holda, noosfera halokatga mahkum. Bu roman mohiyatida tabiiy-biologik yondashuv, ekzistensializm va personalizm tomon siljish kuzatiladi. Shu bois, uning poetik jozibasi tarixiy talqin doirasida o‘z izohini topmaydi.*

T.Murodning “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” (6) romani yetakchi qahramoni Botir firqa obrazi ham yozuvchi ijodiy niyati va estetik idealiga bog‘lab izohlanishi shart. Chunki, adib romanni “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” tarzida nomlar ekan, o‘lib bo‘lmaslik, ya‘ni o‘lishga hamisha ulgurish mumkin ekani g‘oyasi orqali adabiy

## “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



qahramoni o‘zi uchun boqiy dunyo hayotini afzal deb bilmasligini nazarda tutadi. Darhaqiqat, Botir firqa hali-veri o‘lmoqchi emas. Chunki u – Haq va haqiqat qadrini moddiy-ma’naviy manfaatdorlik bilan o‘lchaydigan amaliyot odami. Shu bois ko‘proq iqtisod, siyosat va madaniyat taqdiri haqida qayg‘uradi. Botir firqaning o‘ziga xos tip ekani shundaki, uning uchun individ manfaatlarida aks etuvchi amaliyotdan ajralgan haqiqat muayyan ma’noga ega emas. Hatto uning diniy e’tiqodga munosabatida ham manfaat masalasi markaziy o‘rinni ishg‘ol etadi. Demak, amaliy tashqi ta’sir bo‘lmaganida, uning “xudojo‘y” bo‘lishi mumkin emasdi.

Romanning yetakchi g‘oyasiga ko‘ra, Botir firqa narigi dunyodagi baxtli hayotdan umidvor bo‘lishdan ko‘ra, turmush qonunlari va inson intilishlari yanada takomillashuviga ishonadi. Jamiyat yetakchilari demagoglikdan amaliy yaratuvchanlikka o‘tishini yoqlaydi. Uning turmush mantig‘iga diqqat qaratsak, adabiy qahramon uchun hayot va o‘lim o‘rtasidagi chegara qadriyatlar tizimi orqali o‘tadi. Bu – tasodif emas. Zotan, modernizm pragmatik estetikasiga ko‘ra, har qanday faoliyatning asl maqsadi inson bo‘lib, u o‘z moddiy hayotida eng nurafshon kechinmalarga erishishi lozim. Bunday sub’ekt faollashishi uchun uning amaliy tajribasi maishiy-axloqiy, diniy-ilohiy va estetik qadriyatlarni qamrab olishi kerak. Bizningcha, roman qahramoni botinida ichki bog‘liqlik va ma’naviy butunlikka erishish tomon siljish sodir bo‘ladi. Sub’ektda ijtimoiylik va tabiiylik yagona aktga birlashadi. Shuning uchun Botir firqa o‘zi ko‘zlagan ezgu ishlarni amalga oshirmay yoki el-yurt taqdirini ishonchli qo‘llarga topshirmay o‘lmaydi va o‘lolmaydi.

Binobarin, T.Murod estetik idealiga ko‘ra, Botir firqa xarakteri o‘z ichki mantig‘iga asosan amaliyot odamidir. Anglashiladiki, bu estetikadan so‘fizmga xos muayyan belgi-sifatlarni izlashda mantiqiy asos yo‘q. Chunki Botir firqa hech qanday agiografik obraz emas, balki sof pragmatikdir. Roman leytmotivida hayot nafasi, bunyodkorlik ruhi, moddiy dunyoni yashartirish istagi ufurib turadi. U maishiy-axloqiy, diniy-ilohiy va estetik qadriyat kishisi sifatida qayta tug‘iladi.

Roman poetikasini tushunish va tushuntirishda yuqoridagi jihatlarni e’tiborda tutilishi lozim. Bayon qilingan fikr-qarashlar badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik, xususan milliy romanshunoslikka daxldor talay individual jihatlar mavjudligini ko‘rsatadi:

*Birinchidan*, badiiy adabiyotda ishonch-e’tiqodsiz odamning ruhiy-ma’naviy depressiya holati ham o‘z ifodasini topadi. Ya’ni ideallari sarobga aylangan holatda u faol sub’ekt sifatida namoyon bo‘lmaydi. Real dunyo aqidalari va botiniy



kechinmalararo tebranib yashaydi va dunyoviy ma’nodagi fojiali taqdir sifatida namoyon bo’ladi.

*Ikkinchidan*, da’vat qilmoq, fikr-qarashlar mohiyatini anglatmoq va odamlarni ergashtirmoq, boringki, hatto noto’g’ri qarashlardan qaytarmoq ham hali adabiyot va san’at, xususan romanning yagona maqsadi bo’lolmaydi.

*Uchinchidan*, badiiy adabiyot real hayotni aynan emas, balki inson ongi, tafakkuri, ma’naviy-ruhiy olamidan o’tkazib ifoda etadi. Bunda u ba’zan real hayot tasdig’i emas, balki inkori yo’lidan ham boradi. Ma’naviyatsizlik va jaholatning zamonaviy ko’rinishlari, insoniy evrilishlarni istehzoli badiiy idrok etadi.

*To’rtinchidan*, adabiy hodisa sanash mumkin bo’lgan chinakam roman tabiat, jamiyat va inson munosabatlarining rivojlanish qonuniyatlari, milliy taraqqiyot tamoyillari negizida yuzaga keladi. Ammo romandagi inson obrazida uning o’z tabiatiga xos g’oyatda murakkab va serqirra munosabatlar o’z ifodasini topadi. Romaniy qahramon mohiyatida moddiy, ma’naviy-ruhiy borliq va yo’qlik (“lomakon”) mujassamlashgani bois unga hamisha ham falsafiy kategoriyalar prizmasidan baho berib bo’lmaydi.

*Beshinchidan*, romanda ratsionallik va irratsionallik ifodalanishi inson obrazining iroda, intuitsiya, ruhiy-ilohiy intilish kabi noratsional tabiatini ko’rsatish imkonini beradi. Hayot inson intellektiga bo’ysunmaydigan murakkab va cheksiz yashirin imkoniyatlarga to’liqdir.

*Oltinchidan*, badiiy haqiqat tasvirga olingan narsa-hodisa mohiyatini ijodkor poetik tafakkuri va istaklariga bog’liq tarzda ifodalab, abadiy (nisbiy) haqiqatlarni tasdiqlaydi. Demak, badiiy asarga real voqelikning ob’ektiv va konkret in’ikosigina deb qarab bo’lmaydi.

*Yettinchidan*, san’at asarida axloqiy, ilmiy, diniy, estetik qadriyatlar mujassamlashadi. Badiiy adabiyotning real hayotga ta’sir etishi uning kitobxon ma’naviy-ruhiy butunligini ta’minlashi ma’nosida tushunilishi mumkin. Zotan, zamonaviy o’zbek romannavislari alohida odamning o’z aql-farosati, hissiy idroki bilan mutlaq g’oyani e’tirof etishini ko’rsatish, shu a’molga kelish yo’lini badiiy ifodalashga urinishmoqda. Ular adabiy qahramon ong-shuuri shaffoflashuvi, ruh sokinligiga erishuvi o’z ilohiy mohiyatini tushunishi orqali kechishini chuqur anglab yetishdi.

Demak, o’zbek romannavislari odamning mohiyati ijtimoiy g’oyalarga nechog’lik bog’lanishida namoyon bo’lmasligi, bu hol badiiy asarning estetik jihatini nazardan

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



qochirish ekanini tushunishdi. Aynan shu, yangi talqin, mustaqillik davri romanlari poetikasini tarixiy-adabiy an'analar uyg'unligida ko'rishni taqozo qiladi.

## Adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev Q. Yangilanishlar muntazamligi. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, – 2007, 19 aprel
2. Kerimov U.L. Kak govoril Zaratustra? Kniga dlya vsekh. – Tashkent: San'at, 2010.
3. Luqmon Bo'rixon. Jaziramadagi odamlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2005.
4. Muhammad Salom. Katta xonadon. Roman. – T.: Sharq, 2020
5. Sodiqov S. Romanmi yoki risola? // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, – 2004, 30 yanvar
6. Tog'ay Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. Roman, hikoya va maqolalar. – T.: Sharq, 2001
7. Yaqubov I. Ishq ahli" romanining adabiy-falsafiy konsepsiyasi // O'zbek tili va adabiyoti. – 2005, № 6. – B.41-47
8. Yakubov I.A. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi. – filol. fan. dok-ri diss. (DSc) – Toshkent. 2018.
9. Quronov D Adabiy jarayonda "Mom sindromi". – Toshkent: Akademnashr, 2010
10. Hamraqulova X. Adabiyotda hayot-mamot muammosi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.